

*“Agar siz matematikani juda murakkab deb o’y’lasangiz, hayotning qanday murakkab ekanligini bilmas ekansiz”*

## 5”A”-sinf ( matematika )

### III bob. Natural sonlarni ko’paytirish va bo’lish.

**Mavzu:** 13-§ Natural sonlarni ko’paytirish va uning xossalari.

**Dars maqsadi:**

- a) **ta’limiy maqsad:** O’quvchilarning ”Natural sonlarni ko’paytirish va uning xossalari “ haqidagi tushunchasini shakllantirish.
- b) **tarbiyaviy maqsad:** o’quvchilarning matematika faniga bo’lgan qiziqishini oshirish.
- c) **rivojlantiruvchi maqsad:** o’quvchilarning natural sonlarni ko’paytirishda uning xossalariidan to’g’ri va o’rinli foydalanish malakasini oshirish.

**Shakllantirilayotgan kompetensiyalar:** O’quv-o’rganish, matematik savodxonlik.

**Amaliyotga oshirish usuli:** Yangi darsni muammoli vaziyatlardan chiqish orqali o’tish, tushuntirish, savol-javob, nutqda matematik terminlarni savodli qo’llay olish.

**Dars turi:** yangi bilim berish.

**Dars jihozi:** tarqatmalar, AKT, darslik.

## D A R S N I N G B O R I S H I

I. Tashkiliy qism: oktabr oyidagi muhim sanalar:

- 1. 1-oktabr \_\_\_\_\_ Ustoz va murabbiylar kuni
- 2. 21-oktabr \_\_\_\_\_ Til bayrami

Yer yuzida tillar ko’p. Olimlarning hisob-kitobiga ko’ra ularning miqdori **3000** dan ortib ketadi.

Mn: O’zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, arab, fors, koreys va boshqa tillar. Tillarning barchasi insonlar o’rtasida aloqa-aralashuvni ta’minlash uchun kerak.

Farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o’rni beqiyos bo’lganligi, bola ilk tovushlarni, so’zlarni onasidan eshitganligi uchun ham, bu tilga **ona tili** deyiladi.

**1989-yilning 21-oktabr** kuni o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

**Maqollar va hikmatli so’zlar:**

- 1) Til bilgan el bilar.
- 2) Ona tilim --- jon-u dilim.
- 3) Ona tilisini unutganlar xor bo’ladi.

- 4) Achchiq til-zahri ilon,  
Chuchuk tilga jon qurbon.

## II.O'tilgan mavzuni so'rash: "Aqliy hujum"

Savollar:

- 1) Natural son deb qanday sonlarga aytiladi?

J: Sanashda ishlatiladigan sonlarga natural sonlar deyiladi.

- 2) Sonli ifoda deb nimaga aytiladi?

J: Sonlar,matematik amallar va qavslardan tuzilgan ifodaga sonli ifoda deyiladi.

- 3) Sonli ifodaning qiymati qanday topiladi?

J: Sonli ifodada amallar ko'rsatilgan tartibda bajarilsa,sonli ifodaning qiymati hosil bo'ladi.

- 4) Harfiy ifoda deb nimaga aytiladi?

J: Son va harflar qatnashgan ifoda harfiy ifoda deb aytiladi.

- 5) Harfiy ifodaning son qiymati deb nimaga aytiladi?

J: Harf o'rniga son qo'yib hisoblaganda chiqqan natija harfiy ifodaning qiymati deyiladi.

- 6) Qo'shish qonunlari qaysilar?


J: o'rin almashtirish,guruhlash qonunlari.

- 7)Tenglama deb nimaga aytiladi?

J: no'malum son qatnashgan tenglik tenglama deyiladi.

## III.Yangi dars mazmuni:

Bog'da har biri 5 tupdan 3 qator qilib daraxt ko'chati ekildi.



Bog'da jami 15 tup daraxt ekilgan. Bir xil qo'shiluvchilardan tuzilgan  $5+5+5$  yig'indini ko'paytirish amali belgisi yordamida qisqaroq  $3 \cdot 5$  deb yozish mumkin.

Demak:  $5+5+5 = 3 \cdot 5 = 15$  bo'ladi.

$$a + a + a + a + \dots + a = a \cdot b$$

**b** ta qoshiluvchi

a sonini b songa ko'paytirish deganda, har biri a soniga teng bo'lgan b ta qo'shiluvchilar yig'indisini topish tushuniladi.

$$3 \cdot 5 = 15$$

1-ko'paytuvchi      2-ko'paytuvchi      ko'paytma

Masala: Qutiga meva sharbati 4 qator va 5 ustun qilib joylangan. Qutida nechta meva sharbati bor?      5 ta ustun

$$5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 4 = 20 \quad 4 + 4 + 4 + 4 + 4 = 4 \cdot 5 = 20$$

|                                                                                     |                                                                                     |                                                                                     |                                                                                     |                                                                                     |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
|    |    |    |    |    |
|    |    |    |    |    |
|  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |

Ko'paytuvchilarning o'rnini almashtirgan bilan ko'paytma o'zgarmaydi.

$$a \cdot b = b \cdot a$$

ko'paytirishning **o'rin almashtirish** xossasi

Ko'paytirishning **guruhlash** xossasi:

$$2) a \cdot (b \cdot c) = (a \cdot b) \cdot c$$

$$3) 1 \cdot m = m \quad 1 \cdot 65 = 65$$

$$4) 0 \cdot m = 0 \quad 0 \cdot 5 = 0$$

IV. Mustahkamlash:

**№1** Ko'paytma ko'rinishida yozing:

$$a) 707 + 707 + 707 + 707 = 4 \cdot 707 = 2828$$

$$b) 60 + 60 + 60 + 60 + 60 = 5 \cdot 60 = 300$$

$$d) X + X + X + X + X + X = 6 \cdot X$$

**№2** yig'indini oldin ko'paytmaga keltirib so'ng hisoblang:

$$a) 63 + 63 + 63 + 63 + 63 = 5 \cdot 63 = 315$$

$$b) 425 + 425 + 425 + 425 = 4 \cdot 425 = 1700$$

$$c) 1202 + 1202 + 1202 = 3 \cdot 1202 = 3606$$

**№ 3** Bir xil qo'shiluvchilarni guruhlab hisoblang:

a)  $8 + 3 + 8 + 8 + 8 + 3 + 3 + 8 = 5 \cdot 8 + 3 \cdot 3 = 40 + 9 = 49$

b)  $5+4+4+3+2+2+4+5+5+3+3+3 = 3 \cdot 5 + 3 \cdot 4 + 4 \cdot 3 + 2 \cdot 2 = 15+12+12+4=43$

**Mustaqil ish:**

**№4 Hisoblang:**

a)  $14 \cdot 6=84$

b)  $22 \cdot 1= 22$

d)  $14 \cdot 7=98$

e)  $15 \cdot 0= 0$

f)  $20 \cdot 5=100$

g)  $25 \cdot 4=100$

h)  $8 \cdot 125=1000$

j)  $0 \cdot 2125=0$

**Rasmlarga qarab masala tuzing:** (nutqda matematik terminlarni savodli qo'llay olish)



Har bir qatorda 8 tadan bola 3 qator bo'lib tizilgan. Safda jami qancha bola bor?

Javob:  $8 + 8 + 8 = 3 \cdot 8 = 24$

Mantiqiy fikrlashga doir masala:

Daraxt shoxida 6 ta chumchuq bor edi.

Ularga yana 6 ta kelib qo'shildi.

Mushuk ularning birini ushlab oldi.

Daraxt shoxida nechta qush qoldi? ( javob : qolmaydi, hammasi uchib ketadi. )

V.Baholash

VI.uyga vazifa: 20-21-22-23-misollar



**Buxoro shahar xalq ta'limi muassasalari  
faoliyatini metodik ta'minlash va  
tashkil etish bo'limiga qarashli  
23-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
matematika fani o'qituvchisi**

**O'rayeva Gulshan Saidaxmedovnaning**

**5 "A"- sinfida o'tkazgan ochiq dars**

**mazmunnomas.**